LAZIZ AZIZZODA



Azizzoda Laziz (1889 - 1987) Toshkent shahrida kitob muqovasoz-sahhof va dehqon oilasida dunyoga keldi. Otasi boylardan kichik yerlarni ijaraga olib kun kechirgan. Dastlab eski usuldagi ibtidoiy maktabni tugatgach, 1917 yilgacha madrasada tahsil olgan. Shu yili qisqa muddat "Turon" gazetasida adabiy xodim va mas'ul muharrir. 1917 yil oxiridan 1920 yilgacha eski va yangi shahar firqa qo'mitasida, 1918 yilda ochlarga yordam beruvchi "Ehson" qo'mitasi sarkotibi va "Jamiyati xayriya" a'zosi, 1920 yil oxiri-1922 yillarda Buxoroda davlat nashriyoti va "Ozod Buxoro" gazetalarida faoliyat olib borgan. 1922 yil 23 iyundan to 1923 yil 27 yanvargacha hibsda saqlangan. 1923 yildan to 1924 yilgacha Maskavdagi Narkomnasning Sharq xalqlari nashriyotida chop etilgan o'zbek tilidagi "Uchqun" jurnalida tahririyat a'zosi. 1924 yilda GPUning cheklovi bekor qilingach, Toshkentga kelib, SAKUning Sharq bo'limida tahsil oladi. 1924-1926 yillarda O'zbekiston xalq Maorif ko'missarligi qoshidagi "Akadem markaz"da ilmiy xodim. 1926 yil 22 dekabrdan boshlab Maskavdagi Sharq mehnatkashlari ko'mmunistik universitetida dars beradi va 1927 yil aprel oyigacha aspiranturada o'qiydi. Ammo kutilmaganda GPU raisi o'rinbosari G.Yagoda buyrug'i bilan yana qamoqqa olinadi. U mazkur tashkilotga xizmat qilishdan bosh tortgani uchun Novosibrsk viloyat, Bayevskiy tumanidagi Novo-Chumaki qishlog'iga surgun qilinadi. 1928 yilda kasalligi tufayli Komen shahriga o'tkaziladi. 1930 yilda uch yillik qamoq jazosini o'tab bo'lgach, shu yili yana hibsga olinadi va 10 yil muddatga hukm qilinadi. 1940 yilda Magadanda muddat tugaganiga qaramay, yana cho'ziladi 1947 yil fevral oyigacha "Dalstroy"da ishlaydi va nihoyat shu yili Toshkentga keladi ammo yashash uchun ruxsat berilmaydi, Frunze shahriga borib, viloyat pedagogika yurtida mudirning xo'jalik ishi bo'yicha o'rinbosari bo'lib ishlaydi. 1948 yil avgust oyida O'sh shahriga keladi, ammo o'ziga mos ish topa olmagach, Toshkentga qaytib keladi va 1949 yil 22 aprelda Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan muddati ko'rsatilmagan holda surgun qilinadi. 1957 yilda surgundan qaytib kelgach, umrining so'ngi kunlarigacha Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida faoliyat olib bordi. 1914-1926 yillar matbuotda Laziz Azizzoda, Laziz, Totli, Oqsoq Temur, Yosh yurak imzolari bilan maqolalar yozgan. Uning "Turkistonda uyg'onish tarixi" (Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi, L.Azizzoda fondi), "Mahmudxo'ja Behbudiy" ("Ma'orif va o'qitg'uvchi"1927 y.№11) va boshqa maqola - kitoblarni yozib qoldirgan. Laziz Azizzoda 1966 yilda O'zbekiston Oliy Sudiga ariza bilan murojaat qiladi va 1927 va 1949 yillardagi "jinoiy ish" o'rganib chiqiladi va harakatdan to'xtatiladi, ya'ni u to'la oqlanadi. L.Azizzoda 1987 yil noyabr oyida olamdan o'tdi.